



Nargiza BERDIQULOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi
E-mail: nargizainformatik@gmail.com

PhD L.Isroilova taqrizi asosida

PEDAGOGICAL MODEL OF ORGANIZATION OF CLUBS IN INFORMATION TECHNOLOGY SUBJECTS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS.

Annotation

This article analyzes the pedagogical model of organization of student circles in information technology subjects in higher educational institutions. The role of student circles in the development of scientific and research activities, their impact on the process of professional training and pedagogical aspects are discussed. The effective organization of scientific circles serves to improve students' skills in applying theoretical knowledge in practice, develop their creative and innovative potential, as well as form leadership skills. The article analyzes the existing literature on the organization of scientific circles and studies best practices, and makes proposals based on the pedagogical model.

Key words: Information technologies, higher education, scientific circle, pedagogical model, student activities, innovative education, research, professional training, leadership, creative potential.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ОРГАНИЗАЦИИ КЛУБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО ПРЕДМЕТАМ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В статье анализируется педагогическая модель организации студенческих клубов по дисциплинам, связанным с информационными технологиями, в высших учебных заведениях. Обсуждается роль студенческих клубов в развитии научно-исследовательской деятельности, их влияние на процесс профессиональной подготовки, педагогические аспекты. Эффективная организация научных кружков способствует совершенствованию у студентов навыков применения теоретических знаний на практике, развитию их творческого и инновационного потенциала, а также формированию лидерских качеств. В статье анализируется существующая литература и передовой опыт по организации научных кружков, а также вносятся предложения на основе педагогической модели.

Ключевые слова: Информационные технологии, высшее образование, научный кружок, педагогическая модель, студенческая деятельность, инновационное образование, научные исследования, профессиональная подготовка, лидерство, творческий потенциал.

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA OID FANLARDAN TO'GARAKLARNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK MODEL

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalariga oid fanlardan talabalar to'garaklarini tashkil etishning pedagogik modeli tahlil etilgan. Talabalar to'garaklarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishdagi roli, ularning kasbiy tayyorgarlik jarayoniga ta'siri va pedagogik jihatlari muhokama qilinadi. Ilmiy to'garaklarning samarali tashkil etilishi talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini oshirish, ularning ijodiy va innovatsion salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada ilmiy to'garaklarni tashkil etish bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlili hamda ilg'or tajribalar o'rganilgan bo'lib, pedagogik model asosida takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, oliy ta'lim, ilmiy to'garak, pedagogik model, talabalar faoliyati, innovatsion ta'lim, ilmiy-tadqiqot, kasbiy tayyorgarlik, yetakchilik, ijodiy salohiyat.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish masalalarini o'rganish, shubhasiz, keng doiradagi olimlar – o'qituvchilar, psixologlar, sotsiologlar, faylasuflar, iqtisodchilar va boshqalarning dolzarb tadqiqotlarining asosi hisoblanadi [2].

To'garaklarda muntazam ishtirok etish talabalarni kurs loyihalari va bitiruv malakaviy ishlarini yozishga jiddiyoq yondashishga tayyorlaydi. Ushbu ishlardan olingan oraliq natijalar har yili turli darajadagi ilmiy konferensiyalar, oliy ta'limdagi "davra suhbatlari", seminarlar va boshqa tadbirlarda taqdim etiladi.

Shu sababli, to'garak rahbarining ijodiy va innovatsion yondashuvi uning a'zolarini kelajakdagi kasbiy faoliyatga bosqichma-bosqich jalb etishni ta'minlaydi, talabalar orasida yetakchilik qobiliyatlari va ijodiy tashabbuslarni rivojlantiradi hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Shuning uchun talabalar to'garaklarga, shu jumladan axborot texnologiyalariga oid to'garaklarni tashkil etishni zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish muhim sanaladi. Buning uchun dastlab to'garaklarni tashkil etishga oid olimlarning ishlarini tadqiq etishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'lim tizimida to'garaklarni tashkil qilish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar G. Darxonova [1], I.V.Tolstoyxova va A.A. Shiryayev [2], A.T. Korjumbayeva [3], D.A. Murzayeva [4] va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Oliy ta'limda ilmiy to'garaklar tashkil etish va rivojlantirishning muammolari bo'yicha D.E. Andronov va R.V. Vlasov [5], S.I. Kolodeznikova [6], Sh. G. Romanovna [7] lar izlanishlar olib borgan.

Ushbu olimlarning ishlari to'garaklarni tashkil etish nazariyasi va amaliyotiga qaratilgan bo'lib, biroq axborot texnologiyalariga oid fanlardan to'garaklarni tashkil etish bo'yicha yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Chunki, zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanayotgan davrda axborot texnologiyalariga oid fanlar ham yetarlicha o'zgarib, zamonaviylashib, yangilanib bormoqda.

Hozirgi kunda ta'lim tizimi jadal sur'atlarda isloh qilinmoqda, yangi loyihalar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda, innovatsion jarayonlar kengaymoqda. Shunday sharoitda faol, ijodiy fikrlovchi, murakkab vaziyatlarda mustaqil ravishda turli nodatiy masalalarni ilgari surib, ularni yechishga qodir insonlarga ehtiyoj tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu

munosabat bilan talabalarning tadqiqot vazifalarini hal qilishga tayyorgarlik sifati muammosiga alohida e'tibor qaratilishi zarur [4]. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida talabalar fan to'garaklari faoliyat yuritadi.

To'garaklar faoliyati talabalar ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. To'garaklarda ta'lim olish va faoliyat olib borish davomida talaba ilmiy sohada katta yutuqlarga erishishi va kelgusida o'z faoliyatini IT sohasida davom ettirishi mumkin. Shu bois, har bir oliy ta'lim muassasasi uchun talabalar ilmiy jamiyatlarini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Bu esa talabalarga kasbiy faoliyatga yaxshiroq moslashish, professional mahoratni oshirish, shuningdek, kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishga doimiy ehtiyojni his qilish imkonini beradi [2].


Kelajakdagi mutaxassislarni kasbiy tayyorlashga yordam beruvchi muhim omillardan biri talabalar uchun eng yaxshi professorlar va o'qituvchilar bilan yaqinroq va norasmiy muloqot qilish imkoniyatidir [10]. Aynan o'qituvchi zimmasiga talabalar bilimlarining borligi uchun emas, balki bu bilimlarni mustaqil ravishda qo'llash, tahlil qilish va turli murakkab vaziyatlarda amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini shakllantirish mas'uliyati yuklatiladi. Bu esa klinik fikrlashni rivojlantirishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalar to'garagining asosiy vazifasi bu – o'z ishinining professional bo'lishga intilayotgan, umumiy maqsadga ega bo'lgan hamfikrlarni birlashtirishdir. To'garak qatnashchilari amaliyotda kasbning barcha “nozik jihatlari” va “ko'zdan uzoq tomonlari” ni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar, chunki o'quv mashg'ulotlarida bu uchun ko'pincha vaqt yetarli bo'lmaydi.

Bugungi kunda fan to'garaklar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, kasbiy kompetentlikni shakllantirishda samarali vositalaridan biri hisoblanadi. O'qituvchilarning talabalar bilan bunday shaklda ishlashni afzal ko'rishi to'garak a'zolarining umumiy manfaatlarini, shaxslararo muloqotning ustunligi va talabalar, xususan, to'garak ishtirokchilarining ilmiy izlanishlarga bo'lgan yuqori motivatsiyasi bilan izohlanadi.

Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida fanlardan, shu jumladan axborot texnologiyalariga oid fanlardan to'garaklar tashkil etish muhim sanaladi.

Shu bois tadqiqot doirasida axborot texnologiyalariga oida fanlardan to'garaklarni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha model ishlab chiqildi (1-chizma).



1-chizma. To'garaklarni tashkil etish modeli.

Tahlil va natijalar. Axborot texnologiyalari bo'yicha to'garaklarni samarali tashkil etish va ularni takomillashtirish jarayonini tahlil qilish natijasida quyidagi muhim jihatlari aniqlandi:

Birinchidan, to'garak mashg'ulotlarining mazmuni dasturlash, kompyuter savodxonligi, kompyuter grafikasi va web dasturlash yo'nalishlarini o'z ichiga olishi lozim. Bu yo'nalishlar axborot texnologiyalari sohasining asosiy yo'nalishlarini qamrab oladi va talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ikkinchidan, pedagogik vositalar va ta'lim muhiti muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy dasturlash tillaridan foydalanish, amaliy dasturlar bilan ishlash va interaktiv ta'lim uslublarini joriy etish natijasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari samarali rivojlanadi.

Uchinchidan, metodlar tanlovi ta'lim jarayonining natijadorligini oshirishda hal qiluvchi omildir. Amaliy mashg'ulotlar, onlayn va offlayn kurslar hamda jamoaviy loyihalar orqali o'quvchilar bilimlarini mustahkamlash va real loyihalar ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tahlil natijalariga ko'ra, axborot texnologiyalari bo'yicha to'garaklarni rivojlantirish talabalar va ishtirokchilar axborot texnologiyalari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qiladi, mustaqil loyihalar yaratish imkoniyati kengayadi, bu esa ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuvni shakllantiradi, axborot texnologiyalari sohasida raqobatbardosh kadrlar yetishtiriladi, bu esa mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari fanidan to'garaklarni tashkil etishning takomillashtirilgan modeli zamonaviy talabalar javob beradi va talabalarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, mantiqiy, algoritmik, kreativ, kognitiv fikrlashini rivojlantirishda hamda kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan modeldan foydalanish taklif etiladi. Ushbu modelda zamonaviy, kognitiv yondashuv asosida talabalarning mustaqil izlanishiga va mustaqil qarorlar qabul qilishga yo'naltirish bilan samarali hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Darxanova G., "To'garak mashg'ulotlarni tashkil etish", "Science and Education" Scientific Journal // www.openscience.uz June 2023 // Volume 4 Issue 6.
2. Толстойхова И.В. и Ширяев А.А., "Студенческие клубы как форма внеучебной деятельности в вузе" // Modern Research of Social Problems. -№11(55), 2015.
3. Коржумбаева А.Т. Студенческий научный кружок по анатомии как первая ступень в формировании исследовательской компетентности студентов-медиков. / А.Т. Коржумбаева, А.А. Болатбекова // Вестник науки и образования. – 2018. – №7 (43), Т. 1. – С. 100-102.
4. Д.А. Мурзаева [и др.], Междисциплинарные исследования электронный сборник статей по материалам XIII студенческой международной научно-практической конференции. //Ассоциация научных сотрудников «Сибирская академическая книга» – Новосибирск – 2017. – С. 146-151
5. Андронов, Д.Е., Власов Р.В. Влияние научных кружков на студентов в образовательном процессе.// Научное сообщество студентов XXI столетия. Общественные науки : сб. ст. по материалам VI междунар. студ. науч.-практ. конф. – Новосибирск : Сибирская академическая книга, 2017. – № 6. – URL : sibac.info/archive/social/6.pdf (дата обращения: 19.10.2018).

6. Колодезникова С. И., “К проблеме организации деятельности студенческого научного кружка в современных условиях” Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2018. – № 11 (165).
7. Шпиталевская Г.Р., “Студенческий научный кружок как вид научно-исследовательской работы студентовбудущих педагогов”. //Балтийский гуманитарный журнал. 2021. Т. 10. –№ 2(35)
8. Аппакова, Э.Г. Научно-исследовательская деятельность студентов как фактор повышения конкурентоспособности (социально-философский анализ) / Э.Г. Аппакова, О.С. Фёдоров // Вестник Казанского технологического университета. – 2013. – № 12. – URL : <https://cyberleninka.ru/article/n/nauchno-issledovatel'skaya-deyatelnost-studentov-kak-faktor-povysheniya-konkurentosposobnostisotsialno-filosofskiy-analiz> (дата обращения: 02.11.2018).
9. Латенкова Н.Ю. [и др.] //Студенческие научные общества в самореализации студентов Медицинская наука и образование Урала. – 2006. – С. 48
10. Narzullayev Sh.Sh., Ravshanova M.Z., “ Prospects for the involvement of modern student youth in scientific research activities” "Science and Education" Scientific Journal //www.openscience.uz January 2025 //Volume 6 Issue 1.
11. Buronova G.Y., Turayeva G.H, Narzullayeva F., “Universal methods of organizing "robototechnics" circles in the primary classes of the school with the help of virtual didactic means”. Asian Journal of Research № 7-9, 2021 ISSN 2433-202x